



FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

HAVO KONDITSIONERI

Ushbu foydalanuvchi qo'llanmani yaxshilab o'qib chiqing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying.

TURI: DEVORGA O'RNATILADIGAN

Ushbu qurilma elektr va elektronika jihozlarda ma'lum xavfli moddalardan foydalanish bo'yicha cheklavlar bilan bog'liq texnik me'yorlar talablariga javob beradi.



www.lg.com

Copyright © 2019 LG Electronics Inc. All Rights Reserved.



MUNDARIJA

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar yoki tarkib bo'lishi mumkin.

Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI3

Muhim xavfsizlik ko'rsatmalari.....3

FOYDALANISHDAN AVVAL8

Komponentlar8

Masofadan boshqarish pultidan foydalanish9

ASOSIY FUNKSIYALAR12

Xonani sovutish.....12

Xonani isitish12

Namlikni ketkazish12

Xona havosini aylantirish13

Ventilyator tezligini sozlash13

Havo oqimining yo'nalishini sozlash.....13

Taymerni o'rnatish13

QO'SHIMCHA FUNKSIYALAR.....15

°C/°F konv e rsyai funksiyasidan foydalanish.....15

Xona haroratini tez o'zgartirish.....15

Xona havosini tozalash15

Avtomatik ishlash16

Avto o'zgartirish ishlash.....16

Energiyani tejagan holda sovitish rejimi17

Displey ekrani yorqinligi17

Havo konditsionerini masofa pultisiz ishlatish17

Havo konditsionerini avtomatik tarzda qayta ishga tushirish17

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH18

Havo filtrini tozalash20

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH21

O'zini o'zi diagnostika qilish funksiyasi21

Xizmat markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval.....21





XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

UZ

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan.

Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek "OGOHLANTIRISH" va "DIQQAT" belgilari bilan qismlarga ajratilgan.

 Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.

OGOHLANTIRISH

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

DIQQAT

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

MUHIM XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

OGOHLANTIRISH

Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

Uydagi bolalar

Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdani foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bunday shaxslar jihozdani foydalanishlari mumkin. Bolalarni jihoz yonida nazoratsiz qoldirmang.



O'rnatish

- Havo konditsionerini barqaror bo'lmagan yuzalarga yoki tushib ketishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatmang.
- Konditsionerni o'rnatayotganda yoki joyini almashtirayotganda rasmiy xizmat markaziga murojaat qiling.
- Boshqaruv qutisining paneli va qopqog'ini xavfsiz o'rning.
- Konditsionerni benzin, propan, bo'yoq erituvchi va hkz. kabi olovlanuvchi suyuqliklar va gazlar bor joyda o'rnatmang.
- Konditsionerni o'rnatayotganda ichki va tashqi bloklarni ulaydigan quvur hamda elektr kabellari tortilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerining quvvatiga mos keladigan avtomat va elektr saqlagichdan foydalaning.
- Tizim ichiga maxsus xladagentdan tashqari hech qanday havo yoki gaz kiritmang.
- Havo sizib chiqishini tekshirish uchun olovlanmaydigan gazdan (azot) foydalaning, siqilgan havo yoki olovlanuvchi gazdan foydalanish yong'inga sabab bo'lishi mumkin.
- Ichki va tashqi blokni ulaydigan simlar mahkam qotirilgan bo'lishi kerak, hamda kabel shunday tortilish kerakki kabelning ulangan joylaridan tortilib uzilib ketmasligi shart. Noto'g'ri ulanish yoki mahkam qotirilmasslik qizib ketishi va yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- havo konditsioneridan foydalanish uchun tegishli elektr rozetkasi va avtomatdan foydalaning.
- yerga ulash simini gaz quvuri, momaqaldiroq nayi yoki telefonning yerga ulangan simiga ulamang.

Ishlatish

- Faqatgina xizmat qismida kelgan narsalardan foydalaning. hech qachon qurilmaga o'zgartirish kiritishga harakat qilmang.
- Tashqi blok ustiga yosh bolalar chiqmasligini yoki narsa bilan urmasligini ta'minlang.
- Batareyalarni yong'in sodir bo'lmaydigan joyda chiqitga chiqaring.
- Faqatgina konditsioner yorlig'ida ko'rsatilgan xladagentdan foydalaning.
- Agar konditsionerdan shovqin, hid yoki tutun chiqsa darhol elektr tokidan ajrating.
- Benzin, kerosin yoki erituvchilar kabi yonuvchan narsalarni konditsioner yoniga qo'ymang.
- Agar kondisionyerga suv kirib ketsa rasmiy xizmat markaziga murojaat qiling.
- Konditsionerdan tegishli havo almashish bo'lmagan joyda uzoq vaqt foydalamang.
- Agar (freon, propan, suyuq gaz va hkz.) gaz sizib chiqishi yuz bersa havo konditsioneridan foydalanishdan avval xonani yaxshilab shamollating.
- Konditsionerning ichki qismlarini tozalash uchun rasmiy xizmat markazi yoki dilerga murojaat qiling. dag'al yuvish vositalardan foydalanish qurilmani chiritishga yoki shiksatlashga olib kelishi mumkin.
- Konditsioner va isitish moslamasi bir vaqtda foydalanilganda xonani yaxshilab shamollatishni unutmang.
- Havo yo'nalishining kirish va chiqish joylarini to'sib qo'ymang.
- Havo yo'nalishining kirish va chiqish joylariga konditsioner ishlayotgan paytda qo'llaringizni yoki boshqa narsalarni tiqmang.

- Elektr kabeli kirlanmagan, bo'shab qolmagan yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerini xo'l qo'llaringiz bilan ushlaman, ishlatmang yoki tuzatmang.
- Elektr kabeli ustiga hech narsa qo'ymang.
- Elektr kabeli yoniga isitgich yoki isituvchi moslamalarni joylashtirmang.
- Elektr kabelini o'zgartirmang yoki tortmang. Elektr kabelidagi yirtiq joylar yoki ochilgan joylar yong'inga yoki elektr zarbasiga sabab bo'lishi mumkin va uni almashtirish shart.
- Vaqtinchalik elektr toki bo'lmasa yoki momaqaldiroq paytida darhol elektr simini ajratib qo'yning.
- Jihoz ishlab turgan vaqtda quvvat simi tortilib qolmasligi yoki unga shikast yetmasligini ehtiyotini qiling.
- Jihoz ishlab turgan vaqtda yoki ishlashdan to'xtashi bilan o'q sovituvchi agent quvvuri yoki suv quvvuri yoki jihazning ichki qismlariga tega ko'rmang; aks holda, tana kuyishi yoki tana a'zolarini sovuq urishi, tan jarohati yetishi mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Moslamani unga to'g'ridan to'g'ri suv sepih orqali tozalang.
- Tozalashdan oldin yoki texnik xizmat ko'rsatishdan avval elektr tokidan simni ajratib va ventilyator to'xtatishga qadar kuting.

Texnik xavfsizlik

- Malakasi va ruxsati yo'q shaxs tarafidan moslamani o'rnatish, sizga va boshqalarning hayotiga xavf tug'diradi.
- Ushbu qo'llanmada joy olgan ma'lumot tegishli asbob uskunalariga ega va xavfsizlik qoidalari bilan tanish bo'lgan malakali usta tarafidan foydalanishga mo'ljallangan.
- Ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarni bajarmaslik qurilmaning yaxshi ishlamasligiga, mahsulotning shikastlanishiga yoki shaxsning jarohatlanishiga va/yoki o'limiga sabab bo'lishi mumkin.
- Moslama mahalliy kabellarni ulash qoidalariga muvofiq o'rnatilishi shart.
- Elektr kabelini almashtirish kerak bo'lsa, almashtirish ishlari rasmiy usta tarafidan faqat asl ehtiyot qismlaridan foydalangan holda almashtirilishi shart.
- Elektr zarbasining xavfini kamaytirish uchun ushbu moslama tegishli ravishda yerga ulanishi kerak.
- Yerga ulash tirqishlarini kesmang yoki olib tashlamang.
- Yerga ulashning adapterini devor qabul qilgichiga ulash moslama metal bo'lmasa, izolyatsiyalanmagan bo'lsa yerga ulangan hisoblanmaydi.
- Agar sizda konditsioner tegishli ravishda yerga ulanganligiga shubhangiz bo'lsa, malakali elektr ustasidan tegishli yerga ulash qutisini va avtomatni tekshirishni so'rang.
- Moslamada foydalanilgan xladagent va izolyatsiyalangan gaz maxsus chiqitga chiqarish jarayonini talab etadi. ularni chiqitga chiqarishdan avval xizmat agentidan yoki malakali usta bilan maslahatlashing.
- Agar elektr sim shikastlansa, zarar etishining oldini olish uchun ishlab chiqaruvchi yoki uning xizmat ko'rsatuvchi agentlari, shunga o'xshash malakali shaxs tomonidan almashtirilishi lozim.

DIQQAT

Kichik shaxsiy jarohatlarning xavfini kamaytirish, mahsulotning noto'g'ri ishlashi yoki mulkga shikast etishining xavfini kamaytirish uchun asosiy dastlabgi ehtiyot choralari ko'rilishi kerak, jumladan, quyidagilar:

O'rnatish


- Havo konditsionerini bevosita dengiz shamoli (tuzli havo) uradigan joylarda o'rnatmang.
- Kondensat suvi to'g'ri chiqib ketishi uchun drenaj quvurini to'g'ri o'rning.
- Konditsionerni qadoqdan chiqarayotganda yoki o'rnatayotganda ehtiyotkorlik bilan harakat qiling.
- O'rnatish yoki tuzatish paytida sizib chiqayotgan xladagentga teginmang.
- Konditsionerni ikki kishi yoki undan ko'proq bo'lib ko'taring.
- Tashqi blokni quyosh nurlaridan saqlangan joyda o'rning. Ichki blokni quyosh nurlari to'g'ridan to'g'ri tegib turadigan joylarda o'rnatmang.
- O'rnatgandan yoki tuzatish ishlaridan so'ng vintlar, ninalar yoki batareyalar kabi qadoq materiallarni tegishli idishga solib xavfsiz chiqitga chiqaring.
- Konditsionerini shunday joyga o'rningki, undan chiqqan shovqin va havo qo'shnilarga noqulayliklar keltirmasin. Bunday qilmaslik qo'shnilar bilan kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ishlatish

- Agar masofali pult uzoq muddat davomida foydalanilmaydigan bo'lsa, undagi batareyalarni chiqarib tashlang.
- Havo konditsionerini ishlatishdan avval filtr o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
- Konditsionerni o'rnatgandan yoki ta'mirlagandan so'ng xladagent (sovitish moddasi) sizib chiqmayotganligiga ishonch hosil qiling.
- Havo konditsionerining ustiga hech narsa qo'ymang.
- Pultda hech qachon turli batareyalarni, yoki eski bilan yangi batareyani aralashtirgan holda qo'llamang.
- Namlik yuqori bo'lgan paytda yoki eshik yo deraza ochiq paytda havo konditsionerini uzoq vaqt davomida ishlatmang.
- Batareyadan suyuqlik chiqsa, pultdan foydalanishni to'xtating. agar kiyimlaringiz yoki teringizga batareyaning oqib chiqqan suyuqligi tegsa, uni suv bilan yuvib tashlang.
- Odamlarni, hayvonlarni yoki o'simliklarni konditsionerdan chiqayotgan issiq yoki sovuq havosi ostida uzoq vaqt qoldirmang.
- Agar batareyadan oqib chiqqan suyuqlik yutib yuborilsa, og'zingizni suv bilan chayib yuboring va shifokorga murojaat qiling.
- Havo konditsioneridan chiqqan suyuqlikni yutmang.
- Mahsulotdan oziq-ovqatlarni, san'at asarlarini va boshqa narsalarni saqlash maqsadida foydalanmang. U iste'mol havo konditsioneridir, aniq ishlaydigan sovitish tizimi emas. Mulkning shikastlanish yoki yo'q bo'lish xavfi bor.
- Batareyalarni qaytadan zaryad qilmang yoki qismlarga ajratmang.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Havo filtrini chiqarayotganda hech qachon temir qismlarga teginmang.
- Konditsionerni balandlikda tozalayotganda yoki xizmat ko'rsatayotganda barqaror o'rindiq yoki narvondan foydalaning.
- Konditsionerdan foydalanayotganda hech qachon kuchli tozalash vositalari yoki eritgichlaridan foydalanmang. Yumshoq matodan foydalaning.

Ishlatilgan batareya/akkumulyatorlarni chiqitga chiqarish


- Agar batareya tarkibida 0,0005 % simob, 0,002 % kadmiy yoki 0,004 % qo'rg'oshin bor bo'lsa, simob (Hg), kadmiy (Cd) yoki qo'rg'oshin (Pb) kimyoviy belgilari bilan birga ushbu belgi yozilishi mumkin.
- Barcha batareya/akkumulyatorlar maishiy chiqindidan alohida yo'sinda, mahalliy hokimiyat tayinlagan maxsus yig'ish nuqtalari orqali chiqitga chiqarilishi lozim.
- Eski batareya/akkumulyatorlarni tegishli tarzda chiqitga chiqarish orqali atrof-muhitga, hayvonot va insonlar sog'lig'iga salbiy ta'sirining oldini olasiz.
- Eski batareya/akkumulyatorlarni chiqitga chiqarish to'g'risida batafsil ma'lumot uchun shahringizdagi idoraga, chiqindi xizmatiga yoki mahsulot sotib olingan do'konga murojaat qiling.

FOYDALANISHDAN AVVAL

UZ

Komponentlar

Ichki blok




* Model turiga ko'ra xususiyat o'zgartirilishi mumkin.

ESLATMA

Havo konditsioneri modeliga bog'liq ravishda boshqarish lampalarining soni va ularning joylashishi farq qilishi mumkin.

Tashqi blok




* Model turiga ko'ra xususiyat o'zgartirilishi mumkin.

Masofadan boshqarish pultidan foydalanish


Masofadan boshqarish pulti bilan siz havo konditsionerini yanada qulayroq tarzda boshqarishingiz mumkin.

Simsiz masofadan boshqarish pulti



Boshqaru v paneli	Display ekrani	Tavsifi
		Ventilyator rejimini tanlash uchun.
		Kerakli vaqtda konditsionerini yoqish/o'chirish uchun.
		Sovitish, isitish yoki avto almashish rejimida kerakli xona haroratini sozlash uchun.
	-	Konditsionerni yoqish/o'chirish.
		Ventilyator tezligini sozlash uchun.
		Sovitish rejimini tanlash uchun.
		Isitish rejimini tanlash uchun.
		quritish rejimini tanlash uchun.
		Avto almashtirish/avto ishlash rejimini tanlash uchun.
		Xona haroratini tez o'zgartirish uchun.
		Havo oqimini vertikal yoki gorizontaal yo'nalishda sozlash uchun.
		Xona haroratini aks ettirish uchun.
		°C va °F o'rtasidagi o'lchov birligini o'zgartirish uchun.
		ichki blokda hosil bo'lgan namlikni olib tashlash uchun.
		Elektr iste'molini kamaytirish uchun.

UZ



Boshqaru v paneli	Display ekrani	Tavsifi
LIGHT	-	Ichki blok ekranining ravshanligini o'rnatish uchun.
SET CLEAR	-	Funksiya va taymerni sozlash/bekor qilish uchun.
⏮ ⏭	-	Vaqttni sozlash uchun.
TIME (3 s)	-	Joriy vaqttni sozlash uchun.
○	-	Pult sozlamalarini ishga tushirish uchun.


Boshqaruv paneli

* Ayrim xususiyatlar modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.


Batareyalarni joylashtirish

Masofadan boshqarish pultidan foydalanishdan avval batareyalarni soling. Foydalaniladigan batareya turi AAA (1.5 V).

1. Batareyalar bo'lmasi qopqog'ini oling.



2. Yangi batareyalarni soling va batareyalarning + va - terminallari to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.



3. Batareyalar bo'lmasi qopqog'ini qaytarib joyiga qo'ying.

ESLATMA


Agar masofadan boshqarish pultining display ekrani so'na boshlasa, batareyalarni almashtiring.

Masofadan boshqarish pulti ushlagichini o'rnatish


Masofadan boshqarish pultini himoyalash uchun ushlagichni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushmaydigan joyga o'rnatish.

1. Xavfsiz va oson yetish mumkin bo'lgan joyni tanlang.

2. Otvoyorka bilan 2 ta burama mixni mahkam qotirgan holda ushlagichni qotiring.



3. Masofadan boshqarish pultini ushlagich ichiga suring.



Ishlatish usuli

Uni ishlatish uchun masofadan boshqarish pultini havo konditsionerining quyi qismida joylashgan signal qabul qilgichga yo'naltiring.



ESLATMA

- Agar ularga qaratilsa, masofadan boshqarish pulti boshqa elektr qurilmalarini boshqarishi mumkin. Masofadan boshqarish pultining havo konditsionerining signal qabul qilgichiga yo'naltirilganligiga ishonch hosil qiling.
- To'g'ri ishlashi uchun signal o'tkazgich va qabul qilgichni tozalaganda yumshoq lattadan foydalaning.


ASOSIY FUNKSIYALAR

UZ

Xonani sovutish

(Sovutish rejimi)

1. Yoqish uchun  tugmasini bosing.
2. Isitish rejimini tanlash uchun  tugmasini qayta-qayta bosing.
- Display ekranida  namoyish qilinadi.




3. Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  tugmasini bosing.
- Harorat diapazoni 18 °C (64 °F) ~ 30 °C (86 °F).

Xonani isitish

(Isitish rejimi)

1. Yoqish uchun  tugmasini bosing.
2. Isitish rejimini tanlash uchun  tugmasini qayta-qayta bosing.
- Display ekranida  namoyish qilinadi.



3. Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  tugmasini bosing.
- Harorat diapazoni 16 °C (60 °F) ~ 30 °C (86 °F).

ESLATMA

- Faqat sovitish rejimlarida ishlovchi modellar ushbu funktsiyani qo'llab-quvvatlamaydi.


Namlikni keltkazish

(Namsizlantirish rejimi)

Ushbu rejim yuqori namlik muhitida yoki yomg'irli mavsumda mog'orlanishning oldini olish maqsadida ortiqcha namlikni keltkazadi.

Ushbu rejim namlikning optimal darajasini saqlash uchun xona harorati va ventilyator tezligini avtomatik tarzda sozlaydi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2. Namsizlantirish operatsiyasini tanlash uchun  ni takror bosing.
- Display ekranida  aks etadi.




ESLATMA

- Ushbu rejimda xona haroratini sozlay olmaysiz, chunki harorat avtomatik tarzda sozlanadi.
Shuningdek, xona harorati display ekranida ham aks etmaydi.

Xona havosini aylantirish (Havo aylanishi rejimi)

Ushbu rejim xona haroratini o'zgartirmasdan, faqat xona havosini o'zini sirkulyatsiya qiladi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2.  ni bosing.
- Display ekranida  aks etadi.



3. Ventilyator tezligini sozlash uchun  ni bosing.

Ventilyator tezligini sozlash

1. Ventilyator tezligini sozlash uchun  ni takror bosing.
- Tabiiy havo uchun  ni tanlang.
Ventilyator tezligi avtomatik tarzda sozlanadi.

e'tibor	Tezlik
	Yuqori
	O'rta
	Past
	Tabiiy shamol

Havo oqimining yo'nalishini sozlash

1. Havo oqimi yo'nalishini gorizontal yo'nalishga sozlash uchun  ni takror bosing va kerakli yo'nalishni tanlang.
- Havo oqimi yo'nalishini avtomatik sozlash uchun  ni tanlang.

ESLATMA


- Havo deflektorini ko'r-ko'rona sozlash jihozda nosozlikka olib kelishi mumkin.
- Agar havo konditsionerini qayta ishga tushirsangiz, u avvalgi o'rnatilgan havo yo'nalishi bilan ishga tushadi, shu bois, havo deflektori pultda aks etgan ikonachaga mos bo'lmasligi mumkin. Shunday holat yuz bersa, havo yo'nalishini qaytadan sozlash uchun  ni bosing.

Taymerni o'rnatish

Energiyani tejash va havo konditsionerini yanada samarali ishlatish uchun taymer funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

Joriy vaqtni o'rnatish


1. 3 soniyadan uzoqroq davomida  ni bosib ushlab turing.
- The AM/PM icon flickers at the bottom of the display screen.



2. Daqiqalarni tanlash uchun  yoki  ni bosing.
3. Tugatish uchun  bosing.

Belgilangan vaqtda havo konditsionerini avtomatik tarzda ishga tushirish

1.  ni bosing.
- Display ekrani pastida quyidagi ikonacha yonib o'chadi.




2. Daqiqalarni tanlash uchun  yoki  ni bosing.
3. Tugatish uchun  ni bosing.

ESLATMA

- Taymer o'rnatilgandan so'ng va ON tasviri aks etgandan so'ng, ekranda tegishli vaqt o'rnatilganligi ko'rsatiladi.

Belgilangan vaqtda havo konditsioneri avtomatik tarzda o'chirish

1.  ni bosing.
- Display ekrani pastida quyidagi ikonacha yonib o'chadi.



2. Daqiqalarni tanlash uchun  yoki  ni bosing.
3. Tugatish uchun  ni bosing.

ESLATMA

- Taymer o'rnatilgandan so'ng va OFF tasviri aks etgandan so'ng, ekranda tegishli vaqt o'rnatilganligi ko'rsatiladi.


Taymerni bekor qilish

1.  ni bosing.
- Barcha taymer sozlamalarini bekor qilish uchun  ni bosing.

Uyqu rejimini o'rnatish

Uyquga ketganingizda, havo konditsioneri avtomatik tarzda o'chishi uchun uyqu rejimidan foydalaning.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2.  ni bosing.
3. Soatni (7 soatgacha) tanlash uchun  yoki  ni bosing.
4. Tugatish uchun  ni bosing.
- Uyqu rejimida display ekranida  aks etadi



ESLATMA

- Sovitish va namsizlantirish rejimlarida uxlash uchun qulaylik yaratish maqsadida 30 daqiqadan so'ng harorat 1 °C darajaga ko'tariladi va keyingi har 30 daqiqada 1 °C darajadan oshib boradi.
Harorat belgilangan haroratdan 2 °C darajagacha oshadi.

QO'SHIMCHA FUNKSIYALAR

UZ

Havo konditsioneri ba'zi qo'shimcha kengaytirilgan funksiyalariga ega.

°C/°F konversyai funksiyasidan foydalanish

Ushbu funksiya °C va °F o'rtasidagi o'lchov birligini o'zgartiradi.


 tugmasini 5 soniya davomida bosib va ushlab turing.

Xona haroratini tez o'zgartirish (Tez sovitish/isitish operatsiyasi)

Ushbu rejim yozda xonani tez sovitish yoki qishda tez isitish imkonini beradi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosib.

2.  ni bosib.



- Tez sovitish rejimida, 18 °C (64 °F) haroratda 30 daqiqa davomida kuchli havo oqimi esadi.
- Tez isitish rejimida, 30 °C (86 °F) haroratda 30 daqiqa davomida kuchli havo oqimi esadi.

ESLATMA

- Havoni sirkulyatsiyalash, avto yoki avtomatik o'zgartirish rejimida ushbu funksiyadan foydalanib bo'lmaydi.
- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.


Xona havosini tozalash

Avtomatik tozalash

Sovitish va namsizlantirish rejimlarida ichki blok ichida namlik hosil bo'ladi. **Ushbu namlikni yo'qotish uchun avtomatik tozalash funksiyasidan foydalaning.**

1.  ni bosib.

- Display ekranida  aks etadi.



- Agar quvvatni o'chirsangiz, ventilyator 30 daqiqa davomida ishlab, ichki blok ichini tozalaydi.

ESLATMA

- Avtomatik tozalash funksiyasi ishlayotgan paytda, ba'zi tugmalar ishlamasligi mumkin.


Avtomatik ishlash

(Sun'iy intellekt)

Faqat sovitish modellari

Ushbu rejimda ventilyator tezligi va harorat xona haroratiga qarab avtomatik tarzda sozlanadi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2. Avtomatik ishlash rejimini tanlash uchun  ni bosing.
3. Harorat kerakli haroratdan yuqoriroq yoki pastroq bo'lsa, kerakli ish kodini tanlash uchun  yoki  ni bosing.



Kod	Tavsifi
2	Sovuq
1	Sal sovuq
0	Xona haroratini ushlab turish
-1	Sal issiq
-2	Issiq

ESLATMA


- Ushbu rejimda ventilyator tezligini sozlay olmaysiz, biroq havo deflektorini avtomatik aylanishga o'rnatishingiz mumkin.
- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

Avto o'zgartirish ishlash

Sovitish va isitish modeli

Ushbu rejim o'rnatilgan ± 2 °C haroratda rejimni avtomatik tarzda o'zgartiradi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2. Avto o'zgartirish ishlash tanlash uchun  tugmasini qayta-qayta bosing.
- Display ekranida  aks etadi.



3. Kerakli haroratni o'rnatish uchun  yoki  tugmasini bosing.
- Harorat diapazoni 18 °C (64 °F) ~ 30 °C (86 °F).
4. Ventilyator tezligini sozlash uchun  ni takror bosing.

ESLATMA

- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.


Energiyani tejagan holda sovitish rejimi

Ushbu rejim sovitish paytida energiya iste'molini minimallashtiradi va yanada qulayroq havo muhitini ta'minlash uchun belgilangan haroratni optimal darajaga oshiradi.

Agar siz xohlagan harorat 22 °C (72 °F) dan past bo'lsa, harorat avtomatik ravishda 22 °C (72 °F) qilib belgilanadi.

Agar harorat 22 °C (72 °F) darajadan yuqori bo'lsa harorat o'zgarmas holda qoladi.

1. Quvvatni yoqish uchun  ni bosing.
2. Sovitish operatsiyasini tanlash uchun  ni takror bosing.
3.  ni bosing.
- Display ekranida  aks etadi.



ESLATMA

- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

Display ekrani yorqinligi

Ichki blok displeyi ekranining yorqinligini sozlashingiz mumkin.

1. Yorqinligi kerakli darajaga o'rnatish uchun  ni takroran bosing.

ESLATMA

- Ushbu funksiya hamma modellarda ham qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

Havo konditsionerini masofa pultisiz ishlatish


Masofa pulti bo'lmasa, havo konditsionerining ichki blokini ishlatish uchun yoqish/o'chirish tugmasidan foydalanishingiz mumkin.

Havo konditsionerini avtomatik tarzda qayta ishga tushirish

Elektr toki ta'minoti o'chishidan so'ng havo konditsioneri qaytadan yoqilsa, bu funksiya avvalgi sozlamalarini tiklaydi. Ushbu funksiya zavodning sukut bo'yicha sozlamasidir.

Avtomatik qayta ishga tushirish

1. **ON/OFF** tugmasini bosing va 6 soniya davomida ushlab turing, so'ngra qurilma ikki marta signal chaladi va chiroq 4 marta miltillaydi.



- Funksiyani qayta ishga tushirish uchun Yoqish/o'chirish tugmasini bosing va 6 soniya davomida ushlab turing. Jihoz ikki marta signal chaladi va ko'k chiroq 4 marta yonib o'chadi.

* Model turiga ko'ra xususiyat o'zgartirilishi mumkin.

ESLATMA

- Agar yoqish/o'chirish tugmasini 6 soniya o'rniga 3 – 5 soniya davomida bosib ushlab tursangiz, jihaz sinov ishlatish rejimiga o'tadi. Sinov ishlatish rejimida, sovitish uchun blok 18 daqiqa davomida kuchli havo oqimi chiqaradi, so'ngra, zavodning sukut bo'yicha sozlamalariga avtomatik tarzda o'tadi.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH


UZ

⚠ OGOHLANTIRISH

- Tozalashdan oldin yoki texnik xizmat ko'rsatishdan avval elektr tokidan simni ajrating va ventilyator to'xtagunga qadar kuting.

Agar konditsioner uzoq vaqt davomida ishlatilmasa, uni yaxshi holatda saqlash uchun quruq holatda saqlang. Optimal ishlash va ehtimoliy buzilishlarning oldini olish uchun mahsulotni tez-tez tozalab turing.

- 3-4 soat davomida konditsionerni quriting va elektr rozetkasidan ajrating. Agar uning tarkibiy qismlarida namlik qolib ketsa, ichki qismiga shikast etishi mumkin.
- Havo konditsioneridan qaytadan foydalanishdan oldin, uning ichki qismlarini ventilyator rejimida 3-4 soat davomida ishlating. Bu namlik sababidan hosil bo'lgan hidlarni yo'qotadi.



* Model turiga qarab xususiyat o'zgarishi mumkin.

Turi	tavsifi	Interval
Havo filtri	Changyutgich yoki qo'lda yuvish bilan tozalang.	2 hafta
Ichki blok	Ichki blok yuzasini yumshoq, quruq matodan foydalaning.	Tez-tez
	Kondensat drenaj tagligini profesional shaxsga tozalating.	Bir yilda bir marta
	Kondensat drenaj quvurini profesional shaxsga tozalating.	Har 4 oyda
	Pult batareyalarini almashtiring.	Bir yilda bir marta
Tashqi blok	Issiqlik radiator halqalarini va panel darchalarini professional darajada tozalang. (zarurat bo'lsa usta bilan maslahatlashing.)	Bir yilda bir marta
	Ventilyatorni professional tozalang.	Bir yilda bir marta
	Kondensat drenaj tagligini profesional shaxsga tozalating.	Bir yilda bir marta
	Barcha ventilyator ushlagichlari mahkam tortilganligini tekshirtiring.	Bir yilda bir marta
	Elektr qismlarini havo bilan tozalang.	Bir yilda bir marta


Izoh

- Hech qachon tozalashda 40 °C darajadan issiq bo'lgan suvdan foydalanmang. Bu shaklning o'zgarishiga yoki rangning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Filtrlarni tozalayotgan paytingizda hech qachon uchuvchan substansiyalardan foydalanmang. Ular mahsulotning yuzasini shiksatlashi mumkin.


Havo filtrini tozalash

Havo filtrlarini har 2 haftada, zarurat bo'lsa undan tez-tezroq tozalab turing.


1. Old panel tepa qismini tortib, tepaga ko'taring.




2. Old panelni ushlab turgan holda filtrni chiqarib oling.



3. U filtrni changyutgich yoki iliq suv bilan tozalang. Agar uning kirini ketkazish qiyin kechsa, filtrni neytral yuvish vositasidan foydalangan holda, iliqroq suvda yuving.
4. Tozalab bo'lgach, uni soyada yaxshilab quriting.
5. So'ng, havo filtrni qaytib o'z joyiga tartib bilan o'rnatang.



6. Old panelni yopish uchun old panel ilmog'ini ilgakka iling.





NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

UZ

O'zini o'zi diagnostika qilish funksiyasi

Ushbu mahsulot o'zini o'zi diagnostika qilish funksiyasiga ega. Agar xato yuz bersa ichki blok chirog'i 2 soniya oraliq bilan miltillaydi. Agar shunday bo'lsa, mahalliy diler yoki xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Xizmat markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval

Iltilmos, xizmat markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval quyidagilarni tekshiring. Agar muammo davom etsa mahalliy xizmat markaziga murojaat qiling.

Muammo	Yuzaga keltirgan sabablar ehtimoli	Tuzatish harakati
Havo konditsioneri normal shlamayapti.	Kuygan hid va g'alati tovushlar ichki blokdan chiqmoqda.	Konditsionerni o'chiring, rozetkadan ajrating yoki elektr ta'minotini uzing va xizmat markaziga murojaat qiling.
	Namlik past bo'lsa ham ichki blokdan suv oqmoqda.	
	Quvvat kabeli shakllangan yoki u keskin issiqliq chiqarmoqda.	
	Tumbler, avtomat (xavfsizlik, yerga ulash) yoki elektr saqlagich yaxshi ishlamayapti.	
	Qurilma o'zini o'zi diagnostikadan xato kodini chiqarmoqda.	
Havo konditsioneri ishlamayapti.	Havo konditsioneri tokdan uzilgan.	Elektr kabeli rozetkaga ulanganligi yoki tokni uzish avtomatlari yokilganligini tekshiring.
	Elektr saqlagich kuygan yoki elektr ta'minoti bloklangan.	Elektr saqlagichni almashtiring yoki avtomat uzib qo'yilmaganligini tekshiring.
	Tok uzilgan.	- Tok ketsa, havo konditsionerini o'chiring. - Tok berilganda 3 daqiqa kuting, shundan so'ng konditsionerni yoqing.
	Kuchlanish juda baland yoki juda past.	Avtomat uzib qo'yilmaganligini tekshiring.
	Havo konditsioneri avtomatik tarzda o'chib qoldi.	Konditsionerni yoqing.
	Pultdagi batareya sozlamasi noto'g'ri.	- Pultingizda batareyalar to'g'ri o'rnatilganligini tekshiring. - Agar batareyalar to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, biroq konditsioner hamon ishlamasa, batareyalarni almashtiring va qaytadan urinib ko'ring.



Muammo	Yuzaga keltirgan sabablar ehtimoli	Tuzatish harakati
Havo konditsioneri salqin havo chiqarmayapti.	Havo to'g'ri aylanmayapti.	Havo konditsionerining old qismi pardalar, jalyuzilar yoki mebel qismlari bilan to'silmaganligini tekshiring.
	Havo filtri kirlangan.	- Havo filtrini har 2 haftada tozalab turing. - Batafsil ma'lumot uchun "Havo filtrini tozalash" bo'limiga qarang.
	Xona harorati juda baland.	Yozda, xonani sovitish bir oz vaqt olishi mumkin. bunday holatda xonani tez sovitish uchun turbo rejimidan foydalaning.
	Sovuq havo xonadan chiqib ketmoqda.	Xonaning ventilyasiya yo'llaridan sovuq havo chiqib ketmayotganligini tekshiring.
	Siz xohlagan harorat joriy haroratdan yuqori.	Kerakli haroratdan pastroq darajada qilib o'rnatish.
	Yaqin atrofda isitish manbai bor.	Konditsioner ishlayotgan paytda elektr o'chog'i yoki gaz o'chog'i kabi issiqlik chiqaruvchi moslamalardan foydalanmang.
	Ventilyator rejimi tanlangan.	- Ventilyator rejimida ichki blokdan havo sovitilmasdan yoki isitilmasdan chiqadi. - Ishlash rejimini sovitishga o'rnatish.
	Tashqaridagi harorat juda baland.	Sovitish effekti samarali bo'lmasligi mumkin.
Ventilyator tezligini sozlab bo'lmayapti.	Turbo rejim yoki avtoishlash rejimi tanlandi.	Ayrim ishlash rejimlarida siz ventilyator tezligini sozlay olmaysiz. Ventilyator rejimini sozlay oladigan ishlash rejimini tanlang.
Haroratni sozlab bo'lmayapti.	Ventilyator yoki turbo rejimi tanlangan.	Ayrim ishlash rejimlarida siz haroratni sozlay olmaysiz. Haroratni sozlay oladigan ishlash rejimini tanlang.
Havo konditsioneri ishlayotgan paytda to'xtab qolmoqda.	Havo konditsioneri bexostan o'chib qoldi.	Taymer funksiyasi vaqti tugagan bo'lishi mumkin, shu bois qurilma o'chgan bo'lishi mumkin. Taymer sozlamalarini tekshiring
	Ishlash paytida tok uzilgan.	Tok qayta tiklanishini kuting. agar sizda avtomatik qayta ishga tushirish funksiyasi yo'qilgan bo'lsa, quvvat tiklangandan so'ng bir necha daqiqadan so'ng so'nggi ishini davom ettiradi.

Muammo	Yuzaga keltirgan sabablar ehtimoli	Tuzatish harakati
Ichki blok tok o'chirilgan bo'lishiga qaramasdan ishlashda davom etmoqda.	Avto tozalash funksiyasi ishlayotgan bo'lishi mumkin.	• Avto tozalash funksiyasi ichki blok ichida qolgan har qanday namlikni tozalab tashlash uchun ishlashda davom etadi. Agar siz ushbu xususiyatdan foydalanishni xohlamasangiz, qurilmani o'chirib qo'yishingiz mumkin.
Ichki blokning havo chiqish joyidan tuman chiqmoqda.	Konditsioner ichidagi sovitilgan havo tuman chiqarishi mumkin.	• Xona harorati pasaysa, ushbu hodisa yo'qoladi.
Tashqi blokdan suv oqmoqda.	Isitish rejimlarida radiatordan kondensat suv oqishi mumkin.	• Bu narsa asosiy taglik ostida drenaj shlangini o'rnatishni talab etadi. O'rnatuvchiga murojaat qiling.
Shovqin yoki tebranish bor.	Qurilma ishga tushganda yoki to'xtaganda qaytarish klaraning harakati tufayli qirsillagan ovoz eshitisilish mumkin. Qarsillagan ovoz: Ichki blokning rlastik qismlari harorat o'zgarishi tufayli kengayish va qisqarish sababli qarsillashi mumkin. Suyuqlik oqqan yoki havo haydagan ovoz: Bu konditsioner ichida oqqan xladagentning ovozidir.	• Bu alomatlar normal holat hisoblanadi. shovqin to'xtaydi.
Ichki blokdan hid chiqmoqda.	Hidlar (sigaret tutuni kabilar) ichki blok tarafidan so'rilgan bo'lishi mumkin va havo oqimi bilan chiqarilishi mumkin.	• Agar hid yo'qolmasa, filtrni yuvshingiz kerak bo'ladi. Agar bu yordam bermasa radiatoringizni yuvdirish uchun xizmat markaziga murojaat qiling.
Havo konditsioneri iliq havo chiqarmayapti.	Isitish rejimida konditsioner ishga tushirilganda jalyuzi deyarli yoriq bo'ladi va havo tashqi blok ishlayotgan bo'lsa ham chiqmaydi.	• Bu alomat normal hisoblanadi. iltimos, qurilmada yetarlicha issiq havo hosil bo'lib ichki blokdan chiqishini kuting.
	Tashqi blok eritish rejimida.	• Tashqaridagi havo harorati tushib ketsa isitish rejimida radiatorda muz/yah hosil bo'ladi. ushbu funksiya radiatordagi muz qatlamini olib tashlaydi, u 15 daqiqa ichida nihoyasiga yetishi kerak.
	Tashqaridagi harorat juda past.	• Isitish effekti yetarli bo'lmasligi mumkin.

IZOH

- Ayrim xususiyatlar modelga qarab qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.

Izoh

Izoh

Izoh

Izoh



■ LG Electronics Inc, 84, Wanam-ro, Seongsan-gu, Changwon-si, Gyeongsangnam-do, Korea

□ Импортёр в РФ : ООО «ЛГ Электроникс РУС»

143160, РФ, Московская область, Рузский район, СП Дороховское, 86-й км. Минское шоссе, д.9.

■ LG Electronics Inc. КОРЕЯ, РЕСПУБЛИКА, 84, Wanam-ro, Seongsan-gu, Changwon-si, Gyeongsangnam-do

□ ҚР импорттаушы: “Эл Джи Электроникс Алматы Қазақстан” АҚ
ҚР, Алматы қ., Көкорай к-сі, 2А/9

■ Эл Джи Электроникс, Ванам-ро көшесі, 84, Сеонгсан-гу,
Чангвон-си, Генгсангнам-ду, Корей Республикасы

■ LG Electronics Inc, 84, Wanam-ro, Seongsan-gu, Changwon-si, Gyeongsangnam-do, Janubiy Koreya